

**AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIK DARAJASI VA
MAVJUD MUOMMOLARNI BARTARAF ETISH**

Akbarova Barno Shuxratovna

Iqtisodiy statistika kafedrasi dotsenti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Talaba

Ahmedova Nasiba Olimjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E mail:nasibaakhmedovaaa@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik jamiyatning iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi aholining moliyaviy qarorlar qabul qilishida xatolarga, qarzga botishga va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni yo'qotishiga olib keladi. Bu muammolar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq kuzatiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali chora-tadbirlar qo'llash zarur. Bularga moliyaviy ta'lim dasturlarini joriy etish, bank xizmatlarini qulaylashtirish, shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligida olib boriladigan targ'ibot ishlari kiradi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholi moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, investitsiya qilish va rejalashtirish qobiliyatini oshiradi, natijada ularning hayot sifati yaxshilanadi va iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Shu bilan birga, mavjud muommolarni bartaraf etish uchun moliyaviy institutlar va qonun chiqaruvchi organlar tomonidan shaffof va qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, aholini moliyaviy xizmatlar bo'yicha ongli ravishda ma'lumotlarni oshirish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha qo'llaniladigan strategiyalar uzoq muddatda ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

Kalit soʻzlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy ta'lim, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy qarorlar, aholi hayoti sifati.

Финансовая грамотность населения и устранение существующих проблем

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается финансовая грамотность как важный фактор экономического развития общества. Низкий уровень финансовой грамотности приводит к ошибкам при принятии финансовых решений, задолженностям и потере долгосрочной финансовой стабильности. Эти проблемы особенно часто наблюдаются в развивающихся странах.

Исследования показывают, что для повышения уровня финансовой грамотности необходимо применять эффективные меры. К ним относятся внедрение образовательных программ по финансам, упрощение доступа к банковским услугам, а также проведение разъяснительной работы в сотрудничестве с государственными и негосударственными организациями. Повышение финансовой грамотности способствует более эффективному управлению финансовыми ресурсами, инвестициям и планированию, что в свою очередь улучшает качество жизни населения и обеспечивает экономическую стабильность.

Кроме того, для устранения существующих проблем финансовые институты и законодательные органы должны создавать прозрачные и удобные условия, а также повышать осведомленность населения о финансовых услугах. Результаты исследования показывают, что стратегии, направленные на повышение финансовой грамотности, в долгосрочной перспективе оказывают положительное влияние на экономику и общество.

Ключевые слова: финансовая грамотность, финансовое образование, экономическая стабильность, финансовые решения, качество жизни населения.

Financial Literacy of the Population and Addressing Existing Problems

ABSTRACT: This article examines financial literacy as an important factor in the economic development of society. A low level of financial literacy leads to mistakes

in financial decision-making, debt accumulation, and loss of long-term financial stability. These problems are particularly prevalent in developing countries.

Research indicates that effective measures must be implemented to improve financial literacy. These include the introduction of financial education programs, the simplification of access to banking services, and public awareness campaigns conducted in collaboration with governmental and non-governmental organizations. Enhancing financial literacy enables individuals to manage financial resources more effectively, invest wisely, and plan for the future, ultimately improving their quality of life and ensuring economic stability.

Furthermore, to address existing issues, financial institutions and legislative bodies should establish transparent and convenient conditions while also increasing public awareness of financial services. Research findings suggest that strategies aimed at improving financial literacy have long-term positive effects on both the economy and society.

Keywords: *financial literacy, financial education, economic stability, financial decisions, quality of life.*

KIRISH

Moliyaviy savodxonlik zamonaviy jamiyatda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tushuncha shaxslarning moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish va uzoq muddatli moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi esa aholining moliyaviy ahvolini murakkablashtirib, qarzga botish, tejamkorlikni yo'qotish va moliyaviy xavflarga duchor bo'lish kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikning past darajasi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamonaviy dunyoda moliyaviy bozorlarning murakkablashuvi va moliyaviy xizmatlarning xilma-xilligi aholini moliyaviy jihatdan bilimli va ongli qilish zarurligini taqozo etadi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali shaxslar nafaqat o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash, balki jamiyatning umumiy iqtisodiy barqarorligiga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha

tadqiqotlar va amaliy chora-tadbirlar bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning maqsadi aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish va mavjud muommalarni bartaraf etish yo'llarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot davomida moliyaviy savodxonlikning jamiyat hayotidagi ahamiyati, uning pastligi sabablari va oqibatlari, shuningdek, bu muammolarni bartaraf etish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan strategiyalar tahlil qilinadi. Natijada, moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholining hayot sifati va iqtisodiy barqarorligini yaxshilashga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda keltirilgan tavsiyalar moliyaviy institutlar, davlat organlari va nodavlat tashkilotlari uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asos bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari moliyaviy ta'lim sohasidagi yangi yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJA

Moliyaviy savodxonlik — bu insonning o'z daromadlari va xarajatlarini to'g'ri boshqarish, pul mablag'larini taqsimlash, resurslarga mos yashash va ularni oqilona ko'paytirishda to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatidir.

Soddaroq aytadigan bo'lsak, bu moliyaviy farovonlikka erishishga imkon beradigan va butun umr davomida ushbu barqarorlik darajasida qolishga imkon beradigan bilim hisoblanadi. Moliyaviy savodxon bo'lgan odamlar maoshdan maoshgacha yashamaydilar, agar ular qarzning kelajakda foyda keltirishiga ishonch hosil qilsalar, o'ylab qaror qabul qilib, qarz olishadilar. Ular iqtisodiy inqiroz sharoitida ham xavotirga tushmaydilar, chunki ular turli kutilmagan holatlar uchun o'z “zaxira fondiga” ega kishilardir, ular rejalashtirishni biladilar.

Afsuski, mamlakatimiz aholisining ko'p qismini moliyaviy savodxon deb atash qiyin, chunki ularning aksariyati mutlaqo boshqacha davrda voyaga yetgan va kelajakdagi moliyaviy farovonlik haqida o'ylashga va uzoq muddatli asosda pul mablag'larini kirim va chiqimini rejalashtirishga odatlanmaganlar. Sovet Ittifoqi davrida ulg'aygan aholini esa moliyaviy bilimga ega deb ayta olmaymiz.

Sovet Ittifoqi paytida fond bozori mavjud bo'lmagan, pulni faqat bitta bankda saqlash mumkin bo'lib, aholining yagona daromad manbai – maosh bo'lgan.

Mamlakatimiz aholisining aksar qismi hali ham eski usulda pulni uyda saqlaydi, ba'zilar esa oddiy “qora kun” uchun pulni tejashning zarurligini hatto o'ylamaydi. Ular kapitalni ko'paytirishga odatlanmagan aholi qatlami hisoblanadi.

Aholining yana aksar qismi esa turli xil moliyaviy xizmatlardan foydalanmaydi. Bu faqat ehtiyoj yo'qligi sababli emas. Oddiy odamlar ularning qanday ishlashini tushunishmaydi va hatto mavjudligi haqida tasavvurga ega emaslar. Hozirda bizga aynan shu tizimga sarmoya kiritish taklif etilmoqda, albatta kelajakda munosib pensiya olish uchun. Internet va plastik kartalar orqali to'lovlar qilish imkoniyatlari juda ko'p, ammo ba'zilar uchun naqd pul olish va uni do'konda xarid qilish uchun ishlatish osonroq usul hisoblanib qolmoqda.

Shunday ekan bugungi kunda aholiga pulni tog'ri boshqarish bilimiga zarurati bor. Pul hisob-kitobni yaxshi ko'radi. Bu nafaqat maoshni hisoblash yoki naqd pulni hisoblashni anglatadi. Bu o'z xarajatlarini hisoblash va rejalashtirishni, hatto o'z hayotini rejalashtirishni anglatadi.

Moliyaviy savodxonlikning past darajasi shaxsiy farovonlikka va uy xo'jaliklarining moliyaviy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, moliyaviy tashkilotlarning resurs bazasini yomonlashtiradi, moliyaviy bozorning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini sekinlashtiradi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatining yomonlashishiga olib keladi.

O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning dolzarbligi biz quyidagi sabablar bilan ko'rib chiqamiz:

1. Aholining daromad manbalari tarkibining o'zgarishi; Aholi daromadlari tarkibida kichik biznes, xususiy, oilaviy va individual tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushining ortib borishi jamg'arma va investitsiyalarni samarali boshqarish va xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishga bo'lgan ehtiyojni keskin ortishiga olib keladi.

2. Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo'lishi. Bunday tadbirkorlar kundalik ish faoliyatida turli boshqaruv masalalarini yechadilar: moliyaviy oqimlarni va moddiy aktivlarni boshqarish, moliyaviy hisobga olish, moliyaviy hisobotlarni

yuritish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, sug'urta fondlarini shakllantirish, moddiy resurslarni sotib olishni optimallashtirish, bank xizmatidan foydalanish, jamg'armalarni investitsiyalash, kreditlar olish, qarzni boshqarish kabilar shular jumlasidandir.

3. Uzoq muddatli jamg'armalarni shakllantirish va kredit olish ko'nikmalariga o'qitish aholining moliyaviy savodxonligining muhim funksiyasi hisoblanadi. Shaxsiy jamg'armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarini boshqarish imkoniyatlarini kengayishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg'armalari va investitsiyalashini amalga oshirishning turli muqobil usullari vujudga keladi. Banklar va boshqa moliya institutlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlardan unumli foydalanish uchun kreditlarni boshqarish, investitsiyalashni amalga oshirish, to'g'ri samarali qarorlar qabul qilish uchun aholi moliyaviy savodxon bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi aholisining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida hukumat, Markaziy bank va boshqa turli banklar qator samarali tadbirlar, dasturlar ishlab chiqmoqda. Bu amaliy vazifalar qatorida, moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida Markaziy bank huzurida "Moliyaviy savodxonlik va ommabopligini oshirish departamenti" tashkil etildi va ularga quyidagi vazifalar berildi:


- aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish strategiyasini ishlab chiqish hamda uning doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish;

- bank tizimi strategik vazifalari hamda rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari asosida Markaziy bank va tijorat banklari xodimlarining kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirishni ta'minlash.

Aholi qatlamini moliyaviy huquqlarini bilishi, moliyaviy imkoniyatlaridan keng foydalana olishlari uchun "Moliyaviy savodxonlik va ommabopligini oshirish departamenti" tomonidan "Finlit.uz – moliyaviy savodxonlik" platformasi tashkil etildi va bu platforma orqali aholiga so'ngi moliyaviy yangiliklar va imkoniyatlar e'lon qilinib kelinmoqda. Shu kabi ko'plab tadbirlar qatorida quyidagilar ham amalga oshirildi. Markaziy bank "Butunjahon pul haftaligi" (Global Money Week 2024)


doirasida “Pullaringizni himoya qiling. Kelajagingizni ta’minlang” mavzusida videoroliklar tanlovini e’lon qiladi.

–“Hamkorbank” ATB tomonidan “Qishloq joylarda ayol-tadbirkorlarni moliyaviy savodxonlikka oshirish” loyihasi o’tkazildi.



1- rasm. OECD sayti ma’lumotlariga ko‘ra MDH davlatlarida moliyaviy savodxonlik darajasi .

OECD saytining 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, MDH davlatlarining moliyaviy savodxonlik darajasi 55,9% ni tashkil etdi . O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy savodxonlik ko‘rsatkichi bo‘yichi MDH davlatlari orasida 59,9% bilan Belarus davlatidan keyingi 2-o‘rinni band qildi.



2- rasm. O‘zbekistonda aholi moliyaviy savodxonligining yosh tarkibi

Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) saytining 2024-yil uchun bergan ma'lumotlariga binoan, O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi, moliyaviy bilimlar va moliyaviy resurslarni boshqarish darajalaridan ko'ra ancha yuqori. Qiyosiy tahlillar, moliyaviy savodxonlik darajasining yoshlar o'rtasida boshqa yoshdagilarga nisbatan pastligini ko'rsatmoqda. Birgina moliyaviy resurslarni boshqarish ko'rsatkichi yoshlar o'rtasida yuqori darajasi yoshlar tomonidan moliyaviy mablag'laridan foydalanishda turli axborot texnologiyalarini qo'llashlari bilan izohlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar, o'z navbatida, yoshlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha maqsadli milliy strategiyani ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi. Jahon amaliyoti tahlilining ko'rsatishicha, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish vazifasiga bir martalik tadbir sifatida emas, balki, uzoq muddatli strategiyaga asoslangan mamlakat va har bir tashkilotning asosiy vazifalardan biri sifatida qarash lozim. Aholining moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lishi o'z mablag'laridan samarali foydalana olish, jamg'arish bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga asos bo'ladi va bu, o'z navbatida, davlatning iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi jamiyat rivojlanish bosqichida moliyaviy savodxonlikni oshirish juda dolzarb va bu moliyaviy bozorning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq. Yetarli darajada moliyaviy savodxonlik insonga iqtisodiy jihatdan foydali bilimlarni to'plashga yordam beradi, uning moliyaviy xulq-atvorini yanada samarali qiladi, shuningdek, oilaviy byudjetni oqilona yuritish, moliyaviy boshqaruvni rivojlantirish va natijada aholi farovonligini oshirish orqali fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvar PF-60-son Farmoni. Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5296-son Farmoni. Lex.uz

3. Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6207-son Farmoni. Lex.uz
4. Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4400-son Qarori. Lex.uz
5. Abduvohidov A., Berdiyev G., Eshpo'latov D., Aholi moliyaviy savodxonligi o'sishining tadbirkorlik faoliyati va daromadlar darajasining oshishiga ta'siri. //Iqtisod va moliya, 2022. – № 2-4. – B. 2.